



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

Заклучение

Это означает сосредоточение внимания на мерах, направленных на улучшение экологии города с сухим климатом, таких как увеличение площади произрастания растений и обеспечение отдельных систем орошения для роста деревьев в парках и садах. Разрешая предпринимателям размещать на открытых территориях микрорайонов мелкие торговые точки для выращивания деревьев, следует ввести новые требования в договоры на благоустройство, то есть обеспечить озеленение всех территорий, указав собственника данной зелёной зоны.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Umarov O.Z. O‘zbekistonda shahar atrofi rekreatsiya hududlarini tashkil etish masalalari (Toshkent dengizi misolida) magistrlik dissertatsiyasi. TAQI. T.2019.
2. <https://yandex.ru/video/preview/14555888501226519991>
3. https://www.tripadvisor.ru/Attraction_Review-g187497-d190624-Reviews-Park_Guell-Barcelona_Catalonia.html

NUKUS SHAHRIDAGI JAMOAT BINOLARINING REJAVIY TUZILISHLARI

Berdiniyazov Pamir

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Nukus shahrining jamoat binolarini loyihalash, ularning rejaviy tuzilish xususiyatlari, urbanistik tamoyillar va zamonaviy me'morchilik yondashuvlari tahlil qilinadi. Shaharsozlikning barqaror rivojlanishi, aholining ehtiyojlari, milliy va zamonaviy me'morchilik uyg'unligi asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Аннотация

В статье анализируется проектирование общественных зданий города Нукус, их планировочные особенности, градостроительные принципы и современные архитектурные подходы. Предложения и рекомендации разрабатываются с учетом устойчивого развития городского планирования, потребностей населения и гармонии национальной и современной архитектуры.

Abstract

This article analyzes the design of public buildings in the city of Nukus, their planning features, urban principles and modern architectural approaches. Proposals and recommendations are developed based on the sustainable development of urban planning, the needs of the population, and the harmony of national and modern architecture.

Kalit soʻzlar

Nukus, jamoat binolari, rejaviy tuzilish, shaharsozlik, meʼmorchilik, barqaror rivojlanish.

Ключевые слова

Нукус, общественные здания, планирование, градостроительство, архитектура, устойчивое развитие.

Keywords

Nukus, public buildings, planning, urban planning, architecture, sustainable development.

Kirish

Soʻnggi oʻn yilliklarda Oʻzbekiston shaharlarida urbanizatsiya jarayonlari jadal rivojlanmoqda. Ayniqsa, respublikaning shimoliy-gʻarbiy qismi - Qoraqalpogʻiston Respublikasining markazi hisoblangan Nukus shahri iqtisodiy, madaniy va ilmiy markaz sifatida tez surʼatlarda kengayib bormoqda. Shahar hududida yangi turar-joy massivlari, transport yoʻllari va ijtimoiy infratuzilma obyektlari barpo etilishi bilan bir qatorda, jamoat binolarini samarali loyihalash va ularni toʻgʻri joylashtirish masalasi dolzarb boʻlib qolmoqda.

Asosiy qism

Jamoat binolari shaharsozlik tizimida markaziy oʻrin egallaydi. Ular nafaqat aholi uchun xizmat koʻrsatish funksiyasini bajaradi, balki shahar meʼmoriy qiyofasini shakllantiruvchi asosiy elementlardan biridir. Masalan, maʼmuriy idoralar, taʼlim

muassasalari, madaniyat saroylari, sport majmualari, sog'liqni saqlash inshootlari va savdo markazlari Nukus shahrining umumiy arxitektura ansambliga o'ziga xoslik bag'ishlaydi. Shu bois, bunday binolarning rejabiy tuzilishini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish nafaqat estetik, balki ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan ham katta ahamiyatga ega. Nukus shahrining o'ziga xos xususiyati shundaki, u Orol bo'yi mintaqasining ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy markazi sifatida shakllangan. Mintaqada yuzaga kelgan ekologik muammolar (Orol dengizi qurishi, atmosfera ifloslanishi) shahar aholisi hayotiga bevosita ta'sir etmoqda. Shu bois, yangi jamoat binolarini loyihalashda ekologik barqarorlik, "yashil arxitektura" tamoyillari va energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash zarurati yanada oshib bormoqda.[1]

Shuningdek, jamoat binolari milliy qadriyatlar va zamonaviy me'morchilik uslublarining uyg'unlashuvi orqali shakllantirilishi kerak. Masalan, Nukusdagi ko'plab madaniy markazlar va muzeylar o'zining milliy bezak san'ati elementlari bilan ajralib turadi, bu esa ularni shahar va butun mintaqa uchun ramziy obyektga aylantiradi. Shu bilan birga, zamonaviy global me'morchilik tendensiyalariga moslashish, ko'p funksiyali majmualar qurish va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv muhit yaratish masalalari ham muhimdir.

Nukus shahri O'zbekiston Respublikasining shimoliy-g'arbiy hududida joylashgan bo'lib, Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'muriy markazi hisoblanadi. So'nggi yillarda shaharda urbanizatsiya jarayonlari jadallashib, aholining turmush darajasi va talab-ehtiyojlari ortib bormoqda. Shu sababli jamoat binolarini loyihalash va qurishda zamonaviy shaharsozlik tamoyillariga asoslanish muhim vazifa hisoblanadi. Jamoat binolari - bu shahar aholisi uchun ijtimoiy, madaniy, ta'limiy, tibbiy va iqtisodiy xizmat ko'rsatadigan asosiy infratuzilmalardan biridir. Ularning rejabiy tuzilishi nafaqat estetik va funksional qulaylik, balki shahar rivojlanishining strategik yo'nalishlarini belgilab beradi.[2]

Tadqiqot metodologiyasida quyidagi metodlar asosida olib borildi:

Arxitekturaviy-tahliliy uslub - shahar hududidagi mavjud jamoat binolari arxitektura kompozitsiyasi, joylashuv tizimi va rejabiy yechimlari bo'yicha

o'rganildi. Bunda bino funksional zonalar (asosiy zallar, xizmat xonalari, yordamchi xonalar), tashqi fasad yechimlari va landshaft bilan uyg'unligi tahlil qilindi. Shuningdek, binolarning shahar markazidagi yoki chekka hududlardagi joylashuvi, yo'llar va transport tizimiga yaqinligi hisobga olindi.

Qiyosiy usul - Nukus shahri va boshqa o'zbek hamda xorijiy shaharlardagi jamoat binolari tuzilmalari solishtirildi.

O'rganilgan mavzular bo'yicha natijalarga quyidagilarni aytib o'tishimiz mumkin: jamoat binolarining umumiy tasnifi; rajaviy tuzilish xususiyatlari; zamonaviy me'morchilik tendensiyalari.

Nukus shahri Orol bo'yi mintaqasidagi eng yirik madaniy-ma'muriy markazlardan biridir. Shaharda ko'plab ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash inshootlari, sport majmualari, savdo markazlari, kutubxonalar va muzeylar mavjud. Ayniqsa, I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi shahar me'morchilik ansamblida muhim o'rin egallaydi. Tahlil natijalariga ko'ra, Nukusdagi jamoat binolarida quyidagi rejaviy xususiyatlar kuzatiladi:

Markazlashgan tuzilma - ma'muriy binolar shahar markazida to'plangan;

Chiziqli tuzilma - transport yo'llari bo'ylab savdo va xizmat ko'rsatish binolari joylashgan;

Kombinatsiyalashgan tuzilma - yirik majmualar (masalan, sport majmualari va universitet shaharchalari) markazlashgan hamda tarqoq elementlarni uyg'unlashtirgan.[3]

So'nggi yillarda jamoat binolarini loyihalashda quyidagi tendensiyalar qo'llanilayotganligi, yani energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish masalasi, ko'p funksiyali majmualar qurilishini ko'rib chiqish, milliy bezak san'ati elementlarini zamonaviy shakllar bilan uyg'unlashtirish masalalari, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv arxitektura muhitini yaratish masalalarini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, Nukus shahrida jamoat binolari umumiy rejaviy tizimga ega bo'lsada, ularni yanada samarali joylashtirish va funksional imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Jahon me'morchilik amaliyotida

ko‘plab yirik shaharlarda ko‘p qavatli jamoat majmualari, transport va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi bilan integratsiyalashgan loyihalar keng tarqalgan.[4] Ushbu yondashuvlarni Nukus shahrida ham bosqichma-bosqich joriy etish mumkin. Shuningdek, Orolbo‘yi hududida ekologik muammolar mavjudligi sababli, jamoat binolarini loyihalashda ekologik barqarorlik tamoyillariga alohida e‘tibor berish lozim. “Yashil me‘morchilik” konsepsiyasi asosida qurilgan binolar shahar aholisiga yanada qulay va sog‘lom muhit yaratadi.[5]

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Nukus shahridagi jamoat binolari rejaviy tuzilishi asosan markazlashgan va chiziqli model asosida shakllangan. Zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda, ko‘p funksiyali va ekologik barqaror binolar qurilishi zarur. Milliy me‘morchilik merosi elementlarini saqlagan holda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish eng maqbul yo‘nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qosimov, A. “O‘zbekiston shaharlari me‘morchiligi va urbanizatsiya masalalari.” Toshkent, 2019.
2. Хидоятлов Т.А. Типология общественных зданий. Учебного пособия. Ташкент издательство национального общества философов Узбекистана 2008. ст. 314.
3. Змеул С.Г., Маханько Б.А. Архитектурная типология зданий и сооружений. Издательство «Архитектура-С». 1977.
4. Маньковская Л.Ю. Формообразование и типология зодчества Средней Азии IX-начало XX века. Ташкент: Baktria press, 2024. – 496 с.
5. Jalilov, U. “Barqaror shaharsozlik tamoyillari va ekologik arxitektura.” Toshkent, 2020.